

O‘ZBEK VA TURK SHE’RIYATIDA VATAN KONSEPTINING BADIY TALQINI

(RAUF PARFI VA NOZIM HIKMAT IJODI MISOLIDA)

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF THE HOMELAND IN UZBEKISTAN AND TURKISH POETRY (IN THE EXAMPLE OF THE WORKS OF RAUF PARFI AND NOZIM HIKMAT)

Rahmataliyeva Feruza Akmaljon qizi

Farg‘ona davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek va turk she’riyatining ikki yirik vakili Rauf Parfi O‘zturk va Nozim Hikmat ijodida Vatan konseptining badiiy-estetik xususiyatlari, badiiy ifodalanish tamoyillari qiyosiy-tipologik aspektda o‘rganiladi. Tadqiqot davomida Vatan obrazining poetik funksiyasi, milliy tafakkur bilan aloqador jihatlari, ikki shoirning ifoda uslubidagi mushtarak va farqli jihatlari tahlil qilinadi.

Abstract

This article studies the artistic and aesthetic features of the concept of the Motherland and the principles of artistic expression in the works of two major representatives of Uzbek and Turkish poetry, Rauf Parfi Özturk and Nozim Hikmat, from a comparative and typological perspective. The research analyzes the poetic function of the image of the Motherland, its aspects related to national thinking, and the common and different aspects of the two poets' expressive style

Kalit so‘zlar: Vatan konsepti, qiyosiy-tipologik tahlil, badiiy talqin, ramz, milliy tafakur, Turkiston, turkiy adabiyot

Keywords: Concept of homeland, comparative-typological analysis, artistic interpretation, symbol, national thought, Turkestan, Turkic literature

Adabiyotning azaliy mavzularidan bo'lgan ona Vatan mavzusi har bir xalq adabiyotining ajralmas qismidir. Chunki vatan shunday muqaddas makonki, unda ajdodlarning, millatning xoki yotadi. Vatanning yer ostidagi buloqlari inson jon tomirlari bilan bog'langan bo'ladi, agar inson bu buloqlardan uzoqlashsa, unutsa, uning jon tomirlari bilan birga ma'naviyati, milliyligi ham quriydi. Vatan tuyg'usi turkiy xalqlar ma'naviy hayoti va adabiyotida muhim o'rin egallaydi. Xususan, ikki qardosh xalq – o'zbek va turk adabiyotida Vatan mavzusi xalqning tarixi, ozodlik uchun kurashi, milliy g'ururi kabi masalalar qatorida turadi. Vatan ona timsoli, muqaddas maskan va milliylik ramzi sifatida ulug'lansa-da, uning poetik ifodasida muayyan tarixiy-ijtimoiy sharoitlar ta'sirida o'ziga xos jihatlar ham shakllangan. Shu bois o'zbek va turk she'riyatida Vatan mavzusining qiyosiy o'rganilishi turkiy xalqlar badiiy tafakkuridagi mushtarak va farqli jihatlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rauf Parfi ijodida vatan timsoli nafaqat O'zbekiston, balki butun Turkiston yurti kuylanadi.

*Oldinda ko'rinur bahorlar,
Bu –turkiy dunyoning bahori,
Pichoqlar bo'g'zimga yetganda,
Qaltirab to'kmasman yoshimni.
Hech narsa yo'q mening yelkamda,
Men senga baxsh etdim boshimni.[1, 200-b]*

Rauf Parfi o'ziga O'z Turk deya taxallus tanlar ekan, butun turkiy xalqlar, Turon-Turkiston xalqi shoiri bo'lishni yelkasiga mas'uliyat o'laroq olgan. Yuqoridagi misralarda oldinda hali bahorlar ko'rinmoqda, bu – turkiy dunyoning bahoridir, deyiladi. Mantiqan bahor oldinda ko'rinishi uchun inson qish faslida bo'lishi lozim. Rauf Parfi turkiy dunyoning istiqboliga ishongan holda, hali shunday bahorlar keladi bu butun ahli Turon uchun yorug'lik, yangilanish, yasharish bo'ladi deb hisoblamoqda. She'ning yozilgan sanasiga e'tibor qaratsak, 1976- yil. Ayni sho'ro istibdodi ahli Turkiston bo'ynida ekanligida yozilgan. Shunday tahlikali bir pallada – men ham sening yo'lingda

ma'rifatparvarlar qatorida boshimni berdim, pichoqlar ko'ksimga qadalgan taqdirda ham qaltiramasman va ko'z yosh to'kmasman, deydi, yurti ertasiga, bahorlariga ishonadi. Yuqoridagi misralarda Rauf Parfining chinakam ziyoli sifatida faqatgina O'zbekistonni emas, butun turkiy dunyoning ozodligi, hurligi uchun jon kuydirmoqda.

Turk xalqining otashin shoiri Nozim Hikmat she'riyatida ham aynan yurtini ozod, hur o'lka sifatida ko'rishni, hech qaysi yot qirolliklarga bo'yin egmaslikni tarannum etib keldi.

Daard ko'pu – hamdard yo'q.

Yuraklaring quloqlari munchalik kar,

Munchalik kardir, axir.

Men yonmasam,

Sen yonmasang,

Biz yonmasak,

Qanday qilib

Qorong'uliklar

Yorug'likka chiqar! [4, 158-b]

Mazkur o'tli misralar shoirning "Karam kabi" deb nomlangan she'ridan parcha. Karam – "Karam va Asli" afsonasidagi oshiq qahramon. Shoirga bunchalik ko'p kuyinaverma, Karam kabi o'zingni ado qilasan, deydilar. Bunga javoban shoir dard – ya'ni millat istiqboli, ozodligi, hurligi yo'lida juda ko'p ekanligini, lekin hech hamdard topa olmaganini aytadi. O'zini Karam kabi ado bo'lishga ham tayyor deb sanashi Yuqorida Rauf Parfi ham "Hech narsa yoq mening yelkamda, Men senga baxsh etdim boshimni" misralari bilan hamohangdir. Ikki she'r ham yurt uchun borini berib baralla hayqirayotgan otashqalb shoirning so'zlaridir. She'rning davomida Nozim Hikmat unga achinganidan bas qil deyotganlarga javoban, agar men yonmasam, sen yonmasang, biz yonmasak qorong'uliklar, bu istibdod zulmati hech qachon yorug'likka chiqmaydi, deydi.

Rauf Parfi she'riyatida Nozim Hikmatning ijodiga qaraganda biroz sokinlik mavjud. Chunki uning ijodi gullagan davrda Turkistonni sho'ro hukumati allaqachon bosib olgan edi. O'z fikrlarini ramzlar vositasida, biroz pastroq ohanglarda yozishga majbur bo'ldi. Nozim Hikmat esa ayni hokimiyatlar almashayotgan, muxolif kuchlar bosimlari orasida

ijod qildi. Turk she'riyatiga oq she'r va sarbast vaznni olib kirdi. Sarbat vaznda tuyg'u shakldan ko'ra muhimroq. Shu sababli shoir she'rlari zamonaga, muxolifatchi kuchlarga, mudroq millatiga bir "qichqiriq" tarzida yozildi. Nozim Hikmat vizual she'rlar, publitsistik ohang bilan bir qatorda liro-epik turga ham muhim hissa qo'shdi. Uning "Memleketimden Insan Manzaralari" asari turk poeziyasida o'ziga xos o'rin egalladi, yo'nalish yaratib berdi. Shoir o'z asari haqida "Insan manzaralarinda kimi zaman şiirin birkaç sözle çok şey söyleyebilme olanaklarından yararlandım. Kimi zamansa çıplak bir nesir olarak kaldı yazdıklarım" ya'ni mazkur liro-epik asarda ba'zi yozilganlar she'rning bir nechta so'zda ko'p ma'no so'zlash imkoniyatidan foydalanib yozilgan. Ba'zi paytlarda esa "yalang'och nasr hoida qoldi yozganlarim" deydi shoir. Asarda Vatan tuyg'usi jimjimador satrlar, balandparvoz gaplar bilan emas, temiryo'llar, o'sha vagonlar ichida jimgina ketayotgan oddiy, uqubatli, ammo yashash uchun kurashayotgan xalqi sifatida gavdalanadi. Rauf Parfi ijodida vatan – sof lirik tuyg'ular vositasida, lirik-falsafiy, mavhum-ramziy tushunchalar(pinhona yig'i, mahzun tush, yarador qalb, Muqaddas ruh, yarador ruh) kabi sifatlashlar ichida namoyon bo'lsa, Nozim Hikmat she'riyatida realistik uslubda, publitsistik ohangda, liro-epik turda namoyon bo'ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Vatan obrazi o'zbek va turk adabiyotining ikki buyuk shoiri – Rauf Parfi va Nozim Hikmat she'riyatida ularning o'ziga xos dunyoqarashlari bilan ifoda etilsa ham, davr va ruhiyat taqozosiga ko'ra hamohanglik kasb etadi. Har ikki ijodkor vatan haqidagi jimjimador, balandparvoz va dabdabali satrlarni parchalab, samimiy, dardli va vatan dardini shaxsiy dard sifatida ko'rib yozilgan satrlarni yaratdilar. Nozim Hikmat turk adabiyotiga olib kirgan erkin vazn vositasida dinamik, ohangdor satrlar yordamida ijtimoiy realistik uslubda qalam tebratdi. Rauf Parfi esa g'arb modernizmi va milliy mumtoz an'analar sintezi orqali Vatan timsolining lirik qiyofasini yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rauf Parfi. Sakinlik (Saylanma). – Toshkent: Sharq, 2013 - 416b.
2. Rauf Parfi. Tavba. – Toshkent:Yozuvchi, 2000. – 184 b.

3. Rauf Parfi. Ona Turkiston (Saylanma). Toshkent: Sharq, 1992. – 128 b.
4. Nazim Hikmet. Memleketimden insan manzaralari. – Istanbul:Yapi Kredi Yayinlari, 2002. – 538 b.
5. Nozim Hikmat. Saylanma (She'rlar, dostonlar, pyesalar). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982. – 384 b.
6. Karimov N. Rauf Parfi ijodiyoti va o'zbek she'riyatida modernism. //O'zbek tili va adabiyoti jurnali. - Toshkent, 2018. B. 23-29